

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI BIR MAROTABALIK ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ANDAYEVA SHAXNOZ SANAQULOVNA

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA TALABALARDA MILLIY
QADRIYATLAR TARIXINI O‘RGATISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Andayeva Shaxnoz Sanaqulovna

Yangilanayotgan O'zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini
o'rgatish metodikasini takomillashtirish..... 3

Андаева Шахноз Санакуловна

Совершенствование методики преподавания истории
национальных ценностей студентам возрождающегося Узбекистан. 19

Andaeva Shakhnoz Sanakulovna

Methodology for preparing future teachers for educational activities
based on innovative technologies 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 39

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI BIR MAROTABALIK ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ANDAYEVA SHAXNOZ SANAQULOVNA

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA TALABALARDA MILLIY
QADRIYATLAR TARIXINI O‘RGATISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2656 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda “Ziënet” axborot-ta’lim portalida (www.ziënet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li
tarix fanlari doktori(DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Boboyorov Shuxrat Suvanqulovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « ____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Z.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida talabalar savodxonligini rivojlantirish milliy qadriyatlar tarixini o'rganishning innovatsion kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Milliy-qadriyatlar madaniyati, axloqiy sifatlar, immunitet, xulqning tuzilmali hamda refleksiv-ongli munosabatlarini takomillashtirish, yoshlarda vatanparvarlik munosabatlarini shakllantirish, shaxs, oila, jamiyat va davlat o'rtasida ijtimoiy munosabatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash shaxsni ijtimoiylashtirish, demokratik qadriyatlarni asrash huquq, erkinlik va majburiyatlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy loyihalarni tadqiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida milliy qadriyatlarni o'rganish asosida milliy-aksiologik bilimlarning o'stirishda davlatlarning milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish tarix fanini o'qitish orqali talabalar intellektual madaniyatini, tanqidiy tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro siyosat, ijtimoiy fanlar va madaniyatga ixtisoslashgan markazlarida milliy qadriyatlarni o'rganishga, milliy merosni saqlash, yosh avlodda tarixiy xotirani mustahkamlash va zamonaviy ta'lim metodikasini takomillashtirish orqali ijtimoiy ong va madaniy o'zlik bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarda milliy-qadriyatlar savodxonligini rivojlantirish, ularni milliy, komil inson ruhida tarbiyalash, yoshlarga xavf solayotgan tahdidlarga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va milliy-qadriyatlar jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"¹, hozirgi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan. Bu esa, milliy qadriyatlar asosida talabalarning faollik darajasini intellektual madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytiradi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va uning asosida qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi", shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5039-son "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" va PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2021-yil 19-yanvardagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. PF-4947-son. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – <https://lex.uz/docs/5841063>.

ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi hamda sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi. 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlari va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, milliy-qadriyatlar, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. U.I.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, R.Otamurodova, talabalarning milliy-qadriyatlar bo'yicha savodxonligini oshirish; A.A.Azizxo'jaev, Sh.A.Abbosxo'jaev, E.M.Abzalov, A.Saidov, X.N To'ychieva, M.A.Xamidovalar milliy-qadriyatlar madaniyatini tarixiy-falsafiy fan nuqtai nazaridan aniqlash: I.Ergashev, B.Sharipov, Q. Nazarovlar, Ya.Kadirova subyekt-axloqiy yondashuv asosida talabalarning milliy-qadriyatlar savodxonligini rivojlantirish: Abdulaxatov A.R. talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash; Usmonova M.N. ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarini qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasini rivojlantirishga; Jiyanqulova R.X. professional ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan integratsiyalash texnologiyasini takomillashtirish; Taylanova Sh.Z. oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyalarini rivojlantirish; Qadirova Z.K. esa tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan "A.V.Morozov, V.S.Kukushin, P.P.Gaydenko shaxs rivojlanishi va voyaga yetish jarayonida qadriyatli tasavvurlarning o'rni va ahamiyatini: V.P. Bespalko, B.T. Lixachev, P.Ya. Galperin, O.L. Juk, Ye.Yu. Grudzinskaya, V.V. Mariko, T.G. Muxina, V. Burlakova, V.I. Chuprasova, M.V. Klarin, G.P. Bogdanov, L.P. Matveyev, G.Yu. Fokin, Ye.Ya. Bondarevskiy, M.M. Bogen, V.M. Kachashkin pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Ismail al-Faruqi (AQSh), Inez De Florio Hansen M.T. Rokeach, Y. Portnex, S.H. Schwartz, Yukio Tsuda talabalar ongida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning chuqur anglanishi va mustahkamlanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy

pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan(2022-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish modelini takomillashtirish;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini samadorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilab, tajriba-sinov ishlariga; Buxoro davlat pedagogika instituti, Toshkent Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti, Qo‘qon davlat universitetidan 311 nafar respondent-talabalar jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish jarayonida ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasining pedagogik imkoniyatlari ajdodlarimiz merosi, obyektiv va subyektiv omillar ta’siri va ma’naviy-madaniy taraqqiyotning proporsionalligini ta’minlash hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning transsendental va sotsiotsentrik mazmunini ta’limiy maqsadlar talablariga maqbul uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni milliylikka xos ongni ajdodlarimizning falsafiy qarashlariga ko‘ra tarkib toptirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirishda tarixiy quiz, tarixiy bild up, tarixiy storytelling, tarixiy bingo, loyiha va Case study texnologiyalaridan ratsional foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishgan;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish modeli madaniy muhit bilan keng muloqotni o‘rnatish, ta’limiy funksiyalarini iyerarxik aniqlashtirish, aksiologik yondashuvning amaliy natijadorligiga erishish hamda shaxsiy sifatlarni ta’lim mazmuniga maqsadli

integratsiyalash, umumbashariy meros durdonalariga ongli munosabatni tarkib toptirishning imkoniyatlarini tasniflash asosida takomillashtirishgan;

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga yo‘naltirilgan insonparvarlik, tolerantlik g‘oyalarini targ‘ib qilish, tarixiy an‘analarni saqlab qolish va unga sodiqlik tamoyiliga ko‘ra jahon hamjamiyatiga integratsiyalashning pedagogik infratuzilmasini intensivlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda milliy madaniyat, milliy qadriyat, milliy ong muammolariga nisbatan kompleks yondashishning tashkiliy-metodikasi va texnologik shart-sharoitlari aniqlangan;

Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishdagi salbiy omillarga barham berish, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatidagi metod va vositalar aniqlangan. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli darslik (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug‘i asosida berilgan 902930 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada yaxlit va texnologik yondashuvning hal etilganligi; ilmiy tadqiqot ishining maqsadini pedagogik nuqtayi nazardan to‘g‘ri baholangani, belgilangan vazifalarning tadqiqot yechimini ta‘minlashga qaratilgani; tadqiqotning samarali ko‘p bosqichli tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil; Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish hamda yuqori darajaga ega bo‘lgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va mazmunini aniqlash, shuningdek, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini mezonlarini takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini pedagogik faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan, milliy qadriyatlar savodxonligini o‘rganuvchi ilmiy-pedagogik metodlari belgilanganidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasining pedagogik imkoniyatlari ajdodlarimiz merosi, obektiv va subektiv omillar ta‘siri va ma‘naviy-madaniy taraqqiyotning proporsionalligini ta‘minlash hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning transsendental va sotsiotsentrik mazmunini ta‘limiy maqsadlar talablariga maqbul uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli darslik

mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 11-iyuldagi №22-01-211/22-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga qulay sharoit yaratilgan.

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni milliylikka xos ongni ajdodlarimizning falsafiy qarashlariga ko‘ra tarkib toptirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirishda tarixiy quiz, tarixiy bild up, tarixiy storytelling, tarixiy bingo, loyiha va Case study texnologiyalaridan ratsional foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 11-iyuldagi №22-01-211/22-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish modeli madaniy muhit bilan keng muloqotni o‘rnatish, ta’limiy funksiyalarini iyerarxik aniqlashtirish, aksiologik yondashuvning amaliy natijadorligiga erishish hamda shaxsiy sifatlarni ta’lim mazmuniga maqsadli integratsiyalash, umumbashariy meros durdonalariga ongli munosabatni tarkib toptirishning imkoniyatlarini tasniflash asosida takomillashtirishga oid takliflar “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli darslik mazmuniga (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 11-iyuldagi №22-01-211/22-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning mazmuni boyitilgan.

yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga yo‘naltirilgan insonparvarlik, tolerantlik g‘oyalarini targ‘ib qilish, tarixiy an‘analarni saqlab qolish va unga sodiqlik tamoyiliga ko‘ra jahon hamjamiyatiga integratsiyalashning pedagogik infratuzilmasini intensivlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 11-iyuldagi №22-01-211/22-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning didaktik mazmuni rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar va ilmiy natijalarni chop etishga mo‘ljallangan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobeziyasi, e‘lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish pedagogik muammo sifatida, yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning didaktik imkoniyatlari, yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning amaliyotdagi holati tahlil qilingan.

Ushbu bobda, Ma‘lumki, Talabalarning tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltiruvchi texnologiyalar - bu tarbiya jarayonida zamonaviy metodlar, vositalar va usullarni uyg‘unlashtirib, ta‘lim va tarbiya sifatini oshirishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvdir. Bu texnologiyalar talabalarda ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ishlatiladi.

Bugungi globallashuv va sivilizatsiyaviy o‘zgarishlar davrida insoniyat yangi paradigmalari – yangi tafakkur va qadriyat yo‘nalishlariga ehtiyoj sezmoqda. Bu o‘zgarishlar talabalarda milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, anglash va ongli ravishda o‘zlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Milliy qadriyatlar tarixi – bu xalqning urf-odatlarini, axloqiy me‘yorlarini, madaniy merosi va ijtimoiy ongining shakllanish jarayonidir. Uni o‘rganish tarix, falsafa, sotsiologiya, etnologiya va pedagogika fanlari doirasida olib boriladi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi mahsuli bo‘lib, talabalarda milliy g‘urur, axloqiy qarashlar va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Munavvarqori, Cho‘lpon kabi mutafakkirlar milliy qadriyatlarning tarbiyada tutgan o‘rni haqida muhim fikrlar bildirgan. Forobiy axloqiy qadriyatlar va fozil jamiyatni, Navoiy insonparvarlik va odobni, Avloniy milliy tarbiyani ta‘riflagan. Tarixiy merosimiz – “Avesto”, “Qur‘oni Karim”, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg‘inoniy, Navoiylar asarlari, hamda zamonaviy mutafakkirlar (Sh.M. Mirziyoyev, A.A. Agzamxo‘jayev, R. Mahmudov) ta‘limning milliy qadriyatlar asosida qurilishida muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Marg‘inoniy “Hidoya” asari bilan axloqiy-huquqiy qadriyatlarni tizimlashtirgan.

Xorijiy olimlardan A. Toynbee, C. Geertz, E. Shils, M. Weber, E. Durkheimlar milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rnini turli nazariyalar asosida yoritib bergan.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarga milliy qadriyatlar tarixini innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o‘rgatishni dolzarb

vazifaga aylantirdi. So‘nggi yillarda Z.M. Mirzayev, A. Jo‘rayev, D. Qodirova, A. Ahmedov kabi olimlarning izlanishlari ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini boyitmoqda. Milliy qadriyatlarni o‘qitishda bir qator muammolar mavjud: dasturlarning tizimlashtirilmaganligi, metodik qo‘llanmalarning zamonaviy talablarga javob bermasligi, ilm-fan va ta‘lim integratsiyasining sustligi, innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi. Bu boradagi muammolarni hal etish uchun 2020-yilda tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da “milliy qadriyatlar jamiyatini rivojlantirish” asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Milliy qadriyatlarga asoslangan ta‘lim tarbiyaning maqsadi – iymonli, vatanparvar, intellektual salohiyatga ega, ma‘naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bu fazilatlar yoshlarning sog‘lom tafakkurini shakllantirib, ularni jamiyatga foydali fuqaro sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.


Mamlakatimizda ta‘lim tizimining moderinizasiya qilinishi, ta‘lim muassasalarida shart – sharoitlar, yuqori malakali mutaxasislari balki faoliyati samaradorligida ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda bugungi kunda muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dissertasiyaning **“Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish mazmuni, yangi O‘zbekistonda talaba yoshlarga milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish, yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning didaktik shart-sharoitlari bayon qilingan.

Bugungi globallashuv sharoitida talabalarda milliy qadriyatlar tarixini chuqur o‘rganish, anglash va ongli ravishda qabul qilishni ta‘minlovchi pedagogik yondashuvlarni yangilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, talabalarni milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quv-tarbiyaviy jarayonning ustuvor vazifalaridan biridir.

Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda innovatsion pedagogik texnologiyalar, shakl va metodlardan foydalanish ularning milliy ongini shakllantirishda, tarixiy xotirani yuksaltirishda va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa talaba sifatida faoliyat yuritishga tayyorlanayotgan yoshlar uchun alohida nazariy va amaliy yondashuvlarni talab qiladi.

Dissertatsion izlanishlar asosida ishlab chiqilgan metodik model talabalarni milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishga tayyorlashni quyidagi asosiy komponentlar orqali amalga oshirishni taklif qiladi: maqsad – talabalarda milliy qadriyatlar tarixiga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlar tizimini shakllantirish; yondashuvlar – kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar; Tamoyillar – milliylik, tarixiylik, kontekstual yondashuv, izchillik va uyg‘unlik tamoyillari; bosqichlar – tayyorgarlik, shakllantirish, mustahkamlash va refleksiya bosqichlari; didaktik shart-sharoitlar – zamonaviy AKT vositalari, interaktiv metodlar, multimediyaviy resurslar, elektron platformalar **(1-rasmga qarang)**.



1-rasm. Yangilanayotgan O'zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'rgatish metodikasini takomillashtirish modeli.

Mazkur model innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda talabalar ongida milliy qadriyatlarga doir ijtimoiy-pedagogik mazmuni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Model o‘z ichiga erishiladigan natijalarni belgilovchi mezonlar va baholovchi indikatorlarni ham olgan bo‘lib, talabalarning bilim, ijtimoiy faoliyat va qadriy munosabat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur model doirasida ta‘lim olayotgan Talabalarni innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasining pedagogik jihatlarini o‘rgangan holda o‘zaro muloqotga kirisha oladi, o‘zini o‘zi rivojlantirishda pedagogik fikrlar tarixi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi orqali tajriba-sinov jarayonida shaxsiy mas‘uliyatini namoyon etdi.

Talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishda quyidagi pedagogik texnologiyalar va metodlar samarali deb topildi:

Dissertasiyaning **“Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarida milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili qilingan. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda faoliyatga asoslangan yondashuvning ustunligi ko‘rsatildi. Talabalarni milliy an‘analar, tarixiy qadriyatlar, urf-odatlar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlarga jalb etish orqali ularning shaxsiy identifikatsiyasi, ijtimoiy faolligi va g‘oyaviy qarashlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda milliy qadriyatlarni o‘qitishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, edvayzerlik (maslahatchilik) faoliyatini rivojlantirish, davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash, bu boradagi didaktik parametrlarni aniqlash muhim yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shunday qilib, Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish – bu nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va pedagogik ehtiyojdir. Bu borada innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy metodik model zamonaviy talabalarning bilim, madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi muhim prinsip rivojlantiruvchi ta‘lim va tarbiya hisoblanib, unda ta‘limiy va tarbiyaviy ta’sirlarni tashkil etish orqali rivojlanish sur’ati va mazmunini boshqarish mumkin bo‘ladi. Bunda talaba uchun shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini-o‘zi aktuallashtirishi, ijod qilish qobiliyati va jamiyatda ijtimoiy faollik ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratib borish kerak.

Tadqiqotni olib borishda Talabalarni innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini baholashning mezonlariga mos darajalari ko‘rsatildi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarida milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili bayon qilingan **(1-jadvalga qarang)**.

1-jadval**Talabalar kasbiy ko'nikmalarining takomillashganligini baholashning mezonlariga mos darajalari**

№	Mezon	Mazmuni
1	Motivatsion qadriyat	Bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy va kasbiy ehtiyojning mavjudligi hamda muvaffaqiyatga erishish uchun motivasiya darajasini baholashni nazarda tutadi.
2	Kognitiv - intellekt	Alohida vazifani hal etishda noan'anviy metod va usullarni qo'llash. Muloqot qilishning barcha muqobil imkoniyatlarini tahlil qila olish qobiliyatini nazarda tutadi.
3	Amaliy	Moslashuvchan va maxsus kompetentsiyalarni o'zlashtirganlik; refleksiv nuqtayi nazarning shakllanganligi
4	Refleksiv	Kasbiy faoliyatda o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, haqiqiy pedagogik vaziyatlarni yaratish; talabalarning turli xil kasbiy muammolarni hal etishi va pedagogik o'zaro aloqalar tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, turli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishni baholashni nazarda tutadi.

Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasiga qaratilgan ilmiy izlanish doirasida sinov ishlari uchun quyidagi OTM tajriba maydonlari sifatida tanlandi: Qo'qon davlat pedagogika inisituti; Buxoro davlat pedagogika inisituti; TMC inisituti; **(2-jadvalga qarang)**.

2-jadval**Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlar soni**

T.r.	Tajriba-sinov maydonlari	Tajriba guruhi $n_1 = 157$	Nazorat guruhi $n_2 = 162$
1.	Qo'qon davlat pedagogika inisituti	53	52
2.	Buxoro davlat pedagogika inisituti	52	53
3.	TMC inisituti	51	50

Pedagogik tajribani tashkil etishda sinov ishini tashkil etishga amaliy jihatdan yordam ko'rsatadigan metodist-o'qituvchilarni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan metodist-o'qituvchilar ushbu jarayonning izchil va uzluksiz kechish imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Tajriba-sinov ishi quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

Ta'kidlovchi tajriba – tajriba-sinov ishlarining maqsad, vazifalari aniqlandi; tajriba maydonlari belgilandi; tajriba-sinov ishlariga jalb etiluvchi respondentlar tanlandi; respondent-talabalar tasodifiy tanlov yo'li bilan tajriba hamda nazorat guruhlariga birlashtirildi; anketa so'rovi, pedagogik kuzatish, test, OTM hujjatlari (xususan, guruh jurnali hamda talabalar portfoliosi kabi hujjatlar)ni o'rganish metodlarini qo'llash orqali talabalarning jadidlar ilmiy merosini yorituvchi baho ko'rsatkichlar va shaxsiy yutuqlar mohiyatini yorituvchi ma'lumotlar asosida talabalarning Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini samarali tashkil etish darajasi o'rganildi.

Baholovchi tajriba – anketa so'rovi, pedagogik kuzatish, test hamda OTM hujjatlarini o'rganish asosida tajriba va nazorat guruhlarida kuzatilgan o'zgarishlar, shuningdek, metodik tavsiyalarning samaradorligi o'rganildi; tajriba hamda nazorat


guruhlarida qo‘lga kiritilgan natijalar umumlashtirilgan holda yakuniy xulosalarga kelindi.

Mezonlar asosida quyidagi daraja ko‘rsatkichlari belgilandi: yuqori (kreativ; mukammal daraja) – Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasi rivojlantirish. O‘rta (qisman izlanuvchan; erkin muloqot darajasi) – Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning nazariy asoslaridan zarur darajada xabardor, amaliy jihatdan Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga hamda o‘z ustida ishlashga harakat qiladi, biroq bunda ayrim qiyinchiliklarga duch keladi, tegishli jarayonda muloqot madaniyatiga egaligi qisman namoyon bo‘ladi. Past (produktiv va reproduktiv; tayanch va mustaqil muloqot darajasi)–Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning nazariy asoslaridan kam darajada xabardor, amaliy jihatdan Talabalarni innovasion texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga harakat qilmaydi, o‘z ustida ishlashga e‘tibor qaratmaydi, muloqot madaniyatiga egaligi tegishli jarayonida namoyon bo‘lmaydi.


So‘rovlar chog‘ida aniqlikka erishish maqsadida har ikki guruhda dastlabki tajriba davrida ishtirok etgan talabalarning ishtiroki ta‘minlandi, son ko‘rsatkichlarining mos kelishiga erishildi. Bu bosqichda ham dastlab respondent-talabalar anketa so‘roviga javob berdilar. Javoblar natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topdi.

Tajriba-sinov jarayonida nazorat guruhlarida 155 nafar, tajriba guruhlarida esa 156 nafar tinglovchilar ishtirok etishdi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish bo‘yicha belgilangan mezonlarning rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida o‘rganildi.


Tajriba boshidagi Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning tanlangan guruhlardagi rivojlanganlik ko‘rsatkichlari. (2-rasmga qarang).



2-rasm. Tajriba boshidagi Yangilanayotgan O‘zbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish rivojlanganlik ko‘rsatkichlari.



3-rasm. Tajriba yakunidagi Yangilanayotgan Oʻzbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini oʻrgatish rivojlanganlik darajalarining oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlari.



4-rasm. Tajriba yakunidagi Yangilanayotgan Oʻzbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini oʻrgatish rivojlanganlik darajalarining samaradorlik koʻrsatkichlari.

Yangilanayotgan Oʻzbekistonda talabalarda milliy qadriyatlar tarixini oʻrgatish rivojlanganlik darajalarining statistik taxlil natijalariga koʻra Emotsional-motivatsion mezon boʻyicha 1,15 barobarga, Informatsion-kognitiv mezon boʻyicha 1,14 barobarga, Faoliyatga doir mezon boʻyicha 1,14 barobarga va Aksiologik mezon boʻyicha 1,13 barobarga yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa tajriba guruhidagi olib borilgan tatqiqot ishlarining 14% ga samarali ekanini koʻrsatdi.

XULOSA

1. Oʻzbekistonning enag yangi tarix fanining asosiy maqsadi savollar berish va asosiy muammolarga chuqur javob izlash, shuningdek, dunyoni va undagi hayotimizni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan fikrlash tizimlari, tushunchalar va dalillarni ishlab chiqishdan iboratligi aniqlandi.

2. O‘zbekistonning enag yangi tarixi fanini o‘qitish metodika o‘rganish – bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Zamonaviy realliklar va texnologiyalarning rivojlanishi o‘qituvchilarga tarix fanini o‘qitish uchun yangi imkoniyatlarni ochish dalillangan.

3. Tadqiqotda talabalar intellektual madaniyatini tarix fanini o‘qish asosida innovatsion usulda rivojlantirish texnologiyasi tahlil etildi. Talabalarning intellektual madaniyati aqliy-ruhiy qobiliyatga asoslangan gnoseologik faoliyat turi bo‘lib, talabaning aqliy qobiliyati, bilimi, fikrlash darajasi, tanqidiy tafakkuri, dunyoni ilmiy bilishi va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni individual hal qilishi, oqilona ish tutishi, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqatining yuksak ko‘rinishi ekanligi aniqlangan.

4. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida intellektual salohiyati yuksak kadrlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega mutaxassislarga ehtiyojning mavjudligi talabalarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning obyektiv ijtimoiy-pedagogik zaruratini asosladi. Bu esa, tarix ta‘limining bosh pedagogik vazifasi teran fikrlashga o‘rgatish va mantiqiy tafakkurni o‘stirish tamoyilining ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda tarix fani talabalarda bilimning faqatgina bir darajasi – chiziqli ratsional tafakkur, nazariya bilangina cheklanmasdan, nochiziqli tafakkurni hamda ilmiy va estetik intuitsiyani shakllantirishi bilan ham ahamiyatli hisoblangan.

5. Tarix fanini o‘qitishda kompaktlashtirilgan tizim asosida takomillashtirilgan ta‘lim metodlardan foydalanish samaradorligi tajriba sinov ishlari natijasiga ko‘ra asosli ekanligi isbotlangan.

6. Globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarni anglash zarurati: Bugungi tez o‘zgarayotgan global jarayonlar zamirida nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-axloqiy muhit ham jiddiy o‘zgarishga uchramoqda. Bu jarayonlar turli millatlar qadriyatlari o‘rtasida yaqinlashuvga sabab bo‘lsada, ba’zida yoshlarning ongiga milliylikka zid bo‘lgan, buzg‘unchi g‘oyalarni ham singdirishi mumkin. Shu bois, talabalarni milliy qadriyatlarga asoslangan ong va tafakkur bilan tarbiyalash dolzarb metodik vazifa sifatida qaralgan.

7. Zamonaviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish orqali, bizga yot g‘oyalar ta‘siridan talabalarni himoyalash uchun ularning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi zarur. Tarix fani bu borada samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki milliy tarixni o‘rganish orqali yoshlar o‘zlikni anglashga intiladi va milliy mafkura asoslariga sodiq bo‘lib shakllangan.

8. Tarix fanining metodik salohiyatidan to‘laqonli foydalanish orqali, “O‘zbekiston tarixi” fanining pedagogik shart-sharoitlarini zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirish, o‘quv materiallarini tanlashda ilmiy-metodik asoslarga tayanish, madaniy meros obyektlarini ta‘lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytirish mumkinligi isbotlangan.

9. Fan va qadriyatlar integratsiyasi asosida darslarni tashkil etish orqali har bir mavzu doirasida milliy qadriyatlardan foydalanishning metodik yondashuvlari ishlab

chiqilishi kerak. Bu orqali talabalar mavzuni chuqurroq anglab, qadriyatlar mohiyatini o‘z dunyoqarashi orqali baholash imkoniga ega bo‘lishi aniqlangan.

10. Mustaqil va taraqqiy etayotgan O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarga hurmat ruhida shakllangan talabalar — kelajakda mustahkam milliy davlatchilikning asosi bo‘ladi. Shu bois, milliy qadriyatlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali zaruriy pedagogik infratuzilmani rivojlantirish va bu sohaga doir texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

TAVSIYALAR

1. Talabalar intellektual madaniyatni rivojlantirishda texnologiyasiga milliylikga xos tajribalarni o‘rganish metodikasini takomillashtirish.

2. Virtual reallikda O‘zbekistonning eng yangi tarixi tushunchalarni o‘rganishning immersiv muhitlarini yaratish texnologiyalarini takomillashtirish.

3. Mustaqil faoliyatda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodlarini transformatsiyalash texnologiyalarini takomillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

АНДАЕВА ШАХНОЗ САНАКУЛОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ
ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ
УЗБЕКИСТАНЕ**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2656.

Диссертация была выполнена в Национальном педагогическом университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский) на сайте Научного совета (www.tdpu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Абдуллаев Диёржон Нодиржон угли**
доктор философии по педагогическим наукам
(PhD), доцент

Официальные оппоненты: **Шодиева Матлуба Жураевна**
доктор педагогических наук, профессор

Бобоёров Шухрат Сувонкулович
доктор философии по педагогическим наукам
(PhD), доцент

Ведущая организация: **Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета Национального педагогического университета Узбекистана, DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01, «__» 2025 года в _____ часов. Адрес: 100011, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86. электронная почта: tdpu_kengash@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального педагогического университета Узбекистана (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: 100011, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86. e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Автореферат диссертации был распространен _____ дня, "_____" 2025 года.

(Зарегистрированный протокол номер _____ от «____» _____ 2025 г.).

З.Н.Мамаражабова
Председатель Научного Совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н., профессор

Р.Г.Исянов
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.п.н., доцент

М.Э.Мамаражабов
Председатель Научного семинара при
Научном Совете по присуждению
учёных степеней, д.п.н., профессор

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировых образовательных учреждениях внедряются в образовательный процесс инновационные креативные технологии развития грамотности учащихся и изучения истории национальных ценностей. Ведётся системная работа по совершенствованию культуры национальных ценностей, морально-нравственных качеств, иммунитета, структурных и рефлексивно-осознанных отношений поведения, формированию патриотических отношений у молодёжи, воспитанию духа лояльности к социальным отношениям между личностью, семьёй, обществом и государством, социализации личности, сохранению демократических ценностей, реализации прав, свобод и обязанностей.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования, направленные на развитие национально-аксиологических знаний, основанных на изучении национальных ценностей, модернизацию национальной системы образования стран, развитие интеллектуальной культуры учащихся, критического мышления, логического и аналитического мышления через преподавание истории. В центрах, специализирующихся на международной политике, социальных науках и культуре, проводятся исследования, направленные на изучение национальных ценностей, сохранение национального наследия, укрепление исторической памяти у подрастающего поколения, а также совершенствование современных методов образования для развития общественного сознания и культурной идентичности. В последние годы в нашей республике создаются нормативные основы формирования у обучающихся национально-ценностной грамотности, воспитания их в духе национального, совершенного человека, совершенствования духовно-образовательных аспектов противодействия угрозам, которым подвергается молодёжь. «Воспитание физически здоровых, духовно и психически развитых, самостоятельно мыслящих, преданных Родине, с твёрдой жизненной позицией, повышение их социальной активности в процессе углубления демократических реформ и развития общества национальных ценностей» определено как одна из приоритетных задач современности. Это расширяет дидактические возможности развития активности обучающихся на основе национальных ценностей, интеллектуальных и культурных навыков.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в Постановление № ПП-4307 от 3 мая 2019 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы» и принятая на его основе «Концепция непрерывного духовного образования», а также Постановление № ПП-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования», Постановление № ПП-5039 от 26 марта 2021 года «О создании

